

## ONA TILI DARSLARIDA ADABIY TIL VA SHEVALARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI

*Laylo Otaxonova*

*ToshDO'TAU ona tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

*[hamzayevnal@gmail.com](mailto:hamzayevnal@gmail.com) / 910902100*

**Annotatsiya :** Mazkur maqolada ona tili darslarida adabiy til va shevalarni o'qitishning samarali usullari tahlil qilingan. Maqola adabiy til va shevalarning o'ziga xos xususiyatlarini, ularning o'qitimishida qo'llaniladigan metodlarni, o'quvchilarning yosh va qiziqishlarini hisobga olishni ko'rib chiqadi. Taqqoslash usuli, rol o'ynash mashg'ulotlari, leksik o'yinlar va matn tahlili kabi innovatsion metodlar o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqishni oshirish va til me'yorlarini to'g'ri qo'llashga yordam beradi. Ushbu maqola o'qituvchilarga til o'rgatishda yangi yondashuvlarni joriy etishda qo'l keladi.

**Kalit so'zlar:** adabiy til, shevalar, taqqoslash usuli, rol o'ynash, leksik o'yinlar, matn tahlili, o'quvchilar, yosh xususiyatlari, til o'rgatish usullari, innovatsion yondashuvlar.

**Abstract:** This article explores effective methods for teaching literary language and dialects in native language classes. It analyzes the unique characteristics of literary language and dialects, as well as methods for teaching them, considering the age and interests of students. Methods such as comparison, role-playing exercises, lexical games, and text analysis help increase students' interest in language and improve their application of linguistic norms. This article will be useful for teachers seeking to incorporate innovative approaches to language instruction.

**Keywords:** literary language, dialects, comparison method, role-playing, lexical games, text analysis, students, age characteristics, language teaching methods, innovative approaches.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются эффективные

методы преподавания литературного языка и диалектов на уроках родного языка. В статье анализируются особенности литературного языка и диалектов, а также методы их преподавания, с учетом возраста и интересов учащихся. Сравнительный метод, ролевые игры, лексические игры и анализ текста способствуют повышению интереса учащихся к языку и правильному применению языковых норм. Эта статья поможет учителям внедрить инновационные подходы в обучение языку.

**Ключевые слова:** литературный язык, диалекты, сравнительный метод, ролевые игры, лексические игры, анализ текста, ученики, возрастные особенности, методы преподавания языка, инновационные подходы.

Ona tili har bir millatning ma'naviy boyligi, xalqning tarixiy tafakkuri va madaniyatining ajralmas bo'lagidir. O'zbek tili – o'zining boy leksikasi, fonetik va grammatik tizimi, shevalar xilma-xilligi bilan ajralib turadi. O'quvchilarni adabiy tilda savodli gapirishga, yozishga va fikr bildirishga o'rgatish – ona tili darslarining asosiy maqsadlaridan biridir. Shu bilan birga, shevalarni ham tushunish, ularning lug'aviy va grammatik xususiyatlarini bilish o'quvchilarning tilga bo'lgan umumiy qiziqishini oshiradi. Shu sababli adabiy til va shevalar o'rtasidagi farqni o'rgatish, ularni solishtirish orqali tahlil qilish, tilga nisbatan ongli yondashuvni shakllantiradi.

Adabiy til va shevalarning o'ziga xos xususiyatlari. Adabiy til – tilning me'yorlashgan, normativ, yozma va og'zaki shaklda qo'llaniladigan shaklidir. U rasmiy hujjatlar, ilmiy ishlar, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va ta'lim tizimida qo'llaniladi. Shevalar esa – tilning mintaqaviy variantlari bo'lib, ularning talaffuz, lug'aviy boylik va grammatik tuzilishi adabiy til me'yorlaridan farq qilishi mumkin. Masalan, Toshkent shevasida "borayapman" o'rniga "borvoman", Farg'ona viloyatida "ketdingmi?" o'rniga "kettinmi?" kabi shakllar ishlatiladi. Bu jihatlar o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishi mumkin va tilning rang-barangligini anglashga yordam beradi.

Shevalar va adabiy tilni o'rgatishda qo'llaniladigan samarali usullarni

ko'rib chiqamiz.

### **1. Taqqoslash usuli.**

Adabiy til va shevalarni o'rgatishda eng samarali usullardan biri taqqoslash usulidir. O'qituvchi o'quvchilarga bir xil mazmunga ega matnni avval adabiy tilda, so'ng shevada keltiradi. So'ngra bu ikki matn leksik, fonetik, morfologik va sintaktik jihatdan taqqoslanadi. Misol: Adabiy til: "U do'stlari bilan bog'ga bordi." Toshkent shevasi: "U domlalari bilan bog'ga ketdi."

Taqqoslash orqali o'quvchilar shevalardagi so'z o'zgarishlarini, talaffuz farqlarini anglaydilar.

### **2. Rol o'yash (dialogik mashg'ulotlar).**

O'quvchilarni ikki guruhg'a ajratib, bir guruh shevada, ikkinchisi adabiy tilda muloqot qiladi. Bu usul o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqishni oshiradi va kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi. Misol uchun "Bozorda savdo qilish" mavzusida bir guruh adabiy tilda, ikkinchisi shevada muloqot qilishadi. Bu orqali ular har ikki shakldagi tilni qo'llash malakasiga ega bo'ladilar.

### **3. Leksik o'yinlar.**

Adabiy til va shevalar o'rtasidagi lug'aviy farqlarni o'rganishda leksik o'yinlar samarali hisoblanadi. O'quvchilarga shevada aytildigan so'zlar beriladi va ular bu so'zlarning adabiy tildagi moslamasini topishadi.

Masalan : shevada: "uqat qilmoq", "ketvotti", "gapiryapsizmi?"

adabiy tilda: "ovqat pishirmoq", "ketmoqda", "gapiryapsizmi?"

### **4. Matn tahlili asosida til qoidalarini o'rganish.**

Badiiy matnlarda mualliflar ko'pincha shevalardan foydalanishadi. Bu matnlar ustida ishslash, adabiy til va shevalar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berishga xizmat qiladi. Misol uchun Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Said Ahmad kabi yozuvchilarning asarlaridagi shevaga yaqin nutqiy shakllarni tahlil qilish orqali tilga chuqurroq kirib borish mumkin.

### **5. Multimedia va audio vositalardan foydalanish.**

O'quvchilarga turli hududlar shevalarini eshittirish (audio) yoki ko'rsatish (video) orqali ularning eshitish va tahlil qilish qobiliyatini oshirish mumkin.

Masalan, “Milliy TV”da beriladigan milliy ko‘rsatuvlar, teatr sahnalari yoki folklor chiqishlaridan lavhalar namoyish etilishi o‘quvchilarni til boyligiga oshno qiladi.

**O‘quvchilarning yoshi va qiziqishlarini hisobga olish.** Shevalar va adabiy tilni o‘rgatishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish muhim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ko‘proq og‘zaki mashqlar, o‘rta va yuqori sinflarda esa yozma tahlil ishlari, kichik ilmiy loyihalar, prezentatsiyalar tashkil etilishi kerak.

Adabiy til va shevalarni o‘qitish – bu faqatgina grammatik me’yorlarni yodlatish emas, balki o‘quvchilarda tilga, o‘z milliyligiga bo‘lgan hurmatni shakllantirishdir. Yuqorida keltirilgan usullar o‘quvchilarda tilga ongli yondashuv, adabiy til me’yorlarini to‘g‘ri qo‘llash va shevalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o‘qituvchi til o‘rgatishda innovatsion yondashuvlardan foydalansa, o‘quvchilarning ona tiliga bo‘lgan mehrini yanada oshirish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ibrohimov, S. (2007). O‘zbek dialektologiyasining dolzarb masalalari.
2. Akramov, N. (2018). O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: Fan.
3. Reshetov, V. V. (1959). O‘zbek shevalarining tasnifi. O‘zbek tili va adabiyoti.
4. Shoabdurahmonov, Sh. (1971). O‘zbek xalq shevalari. Toshkent: Fan.
5. Abdullayev, F. (1961). Xorazm shevalari. Toshkent: Fan.